

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

BORATOV ELDOR MUHITDINOVICH

ADOLAT – MA’NAVIYATNING KATEGORIYASI SIFATIDA

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Borotov Eldor Muhitdinovich

Adolat – ma’naviyatning kategoriyasi sifatida5

Боратов Элдор Мухитдинович

Справедливость как категория духовности23

Borotov Eldor Mukhitdinovich

Justice as a category of spirituality45

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of works published.....50

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

BORATOV ELDOR MUHITDINOVICH

ADOLAT – MA’NAVIYATNING KATEGORIYASI SIFATIDA

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.4.PhD/Fal387 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Irkayev Abdurahim Pandjiyevich
falsafa fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Pardayeva Marhabo Davlatovna
falsafa fanlari doktori, professor

Turdiyev Bexruz Sobirovich
falsafa fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "23" iyun soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (681 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "5" iyun kuni tarqatildi.

(2025-yil "5" iyun dagi 17- raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Safarova N.O.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda geosiyosiy munosabatlarning murakkablashib, ziddiyatlarning kuchayayotganligi xalqaro huquq me'yorlariga rioya qilmaslikda, demokratiya, inson huquqlari va erkinliklarini adolat tamoyili asosida ta'minlamaslikka sabab bo'lmoqda. Davlatlarning ichki va tashqi siyosatini xalqaro hamjamiyat tomonidan baholashda hamda ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etishda adolat tamoyillari nafaqat xalq farovonligini oshirish, balki davlatning barqaror rivojlanishiga, huquqiy madaniyat yuksalishiga va manfaatlar muvozanatini saqlashga xizmat qiladi. Shu bois, adolat tushunchasini ma'naviyat kategoriyasi sifatida tadqiq etish, uning iqtisodiy, huquqiy va siyosiy ongda namoyon bo'lish xususiyatlarini, jamiyatda tenglik, osoyishtalik, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash, inson qadr-qimmatini yuksaltirish imkoniyatlarini barqaror taraqqiyot strategiyalari bilan uyg'unlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va yetakchi huquqiy tadqiqot markazlarida adolatga oid g'oyalarni jamiyat hayotida chuqurroq qaror toptirish, uni barqaror rivojlanishning asosi sifatida targ'ib qilish, shuningdek, adolat tamoyillarini hayotga tatbiq etishning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish masalalari bo'yicha amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda avvalo, adolat xalqlar o'rtasidagi tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi omil, milliy jipslik va milliy taraqqiyotni ta'minlash asosidir. Shu sababdan adolatni jamiyat barqarorligi, milliy jipslik va milliy taraqqiyot omili ekanini ochib berish, kam ta'minlangan oilalarni, aholi muhtoj qatlamlarini ijtimoiy muhofaza qilishdan to hududiy-regional rivojlanish darajasigacha bo'lgan ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini, jamiyatda namoyon bo'lish shakllari hamda g'oyaviy-mafkuraviy ahamiyatini nazariy-metodologik jihatdan tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Yurtimizda "inson – jamiyat – davlat" tamoyili asosida inson manfaatlari va adolat mezonlarini ustuvor deb bilgan holda ijtimoiy davlatni shakllantirish, xalq farovonligini ta'minlash hamda hayot sifatini yuksaltirishga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich va tizimli tarzda amalga oshirilmoqda. "... „ijtimoiy davlat“ va „inson qadri“ tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Ijtimoiy davlat qurish g'oyasining negizida, avvalo, inson qadrini ulug'lash va aholiga xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassam. Ushbu g'oya har bir fuqaro uchun ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari asosida munosib yashash sharoitlarini yaratish, muhtojlarga ko'mak berish hamda aholi qatlamlari orasidagi tafovutlarni kamaytirish borasida samarali siyosat yuritadigan davlat modelini yaratishni taqozo etadi"¹. Ayniqsa, adolatning inson, jamiyat va davlat munosabatlariga va ma'naviy tarbiyaga ta'sirini, yosh avlodda komillikni, tashabbuskorlikni tarbiyalashdagi, boqimondachilik kayfiyatining oldini olishdagi, ahamiyatini hamda tarbiyaviy salohiyatini ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Тошкент: "О'zbekiston", 2024. - Б.62.

O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvardagi O‘RQ-419-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2021 yil 4 martdagi PF-6181-son “2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020 yil 22 iyundagi PF-6012 “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019 yil 9 yanvardagi PF-5618-son “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” farmonlari, 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori va Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022 yil 21 fevraldagi 83-son “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019 yil 31 dekabrda 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda mavzuga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Siyosiy-huquqiy ta’limotlar tarixida davlat va jamiyatda tenglik va erkinlik g‘oyalari, adolat va hamjihatlikka aloqador jihatlar to‘g‘risidagi qarashlar qadimgi va antik davr allomalari ilmiy merosida tadqiq etilgan. Bunda Suqrot, Aflotun, Epikur, Arastu, Sitseron kabi antik dunyo olimlari, Konfutsiy, Lao Szi kabi Sharq allomalari adolat masalalari haqida fikr yuritganlar. Adolat kategoriyasi to‘g‘risida ajdodlarimiz asarlarida o‘z davri uchun chuqur mulohazalar Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Nizomulmulk, Alisher Navoiy Xo‘ja Samandar Termiziy ilgari surilgan. Buyuk sohibqiron Amir Temur esa hayotiy shior qilib “Kuch - adolatda” g‘oyasini tanladi va davlat boshqaruvining asosiy tamoyiliga aylandi².

Adolat tushunchasi Yevropa Uyg‘onish va ma’rifatparvarlik davrlarida yevropalik mutafakkirlar – J.Lokk, J.S.Mill, A.Smit, D.Rikardo, B.Konstan, A.de Tokvil, T.Gobbs, Sh.L.Monteske, Jan-Jak Russo, I.Kant, Gegel tadqiqotlarida

² Нерсесян В.С.. Сократ. М.: Издательская группа ИНФРА-М—НОРМА, 1996. — 312 с. (с. 18); Платон. Соч. Т. 3. Ч.2. – М., 1962. – С. 197.; Эпикур. Письмо к Менекею // Лукреций. О природе вещей. М., ИХЛ, 1983. С. 516.; Арасту. Поэтика. Ахлоки кабир. Риторика. - Т.: Янги аср авлоди, 2011. - Б. 130.; Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1993. – Б. 160.; Абу Али ибн Сино. Избраннке произведения. Т.1.Стр. 198; Абу Райҳан Беруний. Минералогия// Избр. Произведения. - Т.: Фан, 1963. - С. 25.; Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Т.: Академнашр, 2016.; Низомулмулк. Сиёсатнома, - Т.: Янги аср авлоди, 2017. – Б. 12.; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. - Т.: 1983. - Б. 46; Ходжа Самандар Термизи. Назидание госуарям. – М., 1971. – Б. 27-28 . Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 75.

fuqarolik jamiyatining va ijtimoiy kelishuv nazariyasining asosi sifatida o'rganilgan. XIX-XX asrlarga kelib jamiyatni isloh qilish borasidagi fikrlari bilan ilmiy tadqiqotlar olib borgan J.P.Sartr, J.Roulz, D.Miller, F.Xayyek, K.Gustav, J.Bodriyyar, J.Tomas, V.Nersesians kabi olimlar adolatning inson, jamiyat va davlat hayotida naqadar muhimligi, uning ijtimoiy ongga va odamlarning hayotiga ta'siri haqida fikr yuritdilar³.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida adolat ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida keng o'rganilgan. Jumladan, A.Ivanov ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida adolat tushunchasining shakllanishini, I.Petrova ijtimoiy adolatning zamonaviy muammolarini, B.Seydaxmetov jamiyatda ijtimoiy adolatning ahamiyatini, M.Rahimov adolat va inson huquqlari tushunchalarining falsafiy tahlili to'g'risida ilmiy izlanishlar olib borishgan. Yu.Guseynov, O.Kulikova, B.Kashnikov tadqiqotlarida adolatparvarlik g'oyalarining "tabiiy adolat" va "huquqiy tenglik", ijtimoiy taqsimlash, himoya qilishdagi o'rniga keng e'tibor qaratilgan⁴.

O'zbekistonda E.Yusupov, S.Shermuhamedov, A.Erkayev, Q.Nazarov, A.Choriyev, J.Yaxshilikov, S.Choriyev, M.Qirg'izboyev, SH.G'oyibnazarov asarlari va R.Xolmurodov, O.Davlatov, Z.Hamidov, S.Rahmonov, S.Alimov, D.Ibrahimova, X.Umaraliyev, Sh.Sa'dullayeva maqolalarida adolat ma'naviyat, falsafa, din, sotsiologiya, psixologiya, huquq, siyosat, iqtisodiyot, ekologiya bilan bog'lab ochib berilgan. S.Otamurodov, A.Xolbekov, A.Huseynova, T.Tilobov, F.Musayev, A.Sharipov, M.Pardayeva, B.Turdiyev tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarida globalashuv, taraqqiyot jarayonida adolat tamoyillarining o'zni, fuqarolik jamiyatida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy omillar tadqiq etilgan. Shuningdek, S.Sultanov tadqiqotida O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ijtimoiy adolat tamoyillari, M.Teshaboyev jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlashning muammolarini tadqiq etishgan⁵.

³ Локк Д.ж. Педагогические сочинения. М., 1939. 126. – Б. 203.; Гельвеций К.А. Об уме: М.1938, с. 34; Гегель. Сочинения, Т.8. М. – Л. 1935, с.20; Дэвид Миллер. Политические учения. Краткое введение. – М.: АСТ. Астраль, 2007. – С.115-120-121.; Джон Томаси. Hayek on Spontaneous Order and the Mirage of Social Justice (@lsj_ru); V.S. Nersesians. Sokrat. М.: Izdatelskaya gruppa INFRA-M—NORMA, 1996. — 312 s. (s. 18);

⁴ Иванов А.Ю. "Социальная справедливость как философская категория в условиях трансформации российского общества"- Москва, 2010; Петрова И.В. "Проблемы социальной справедливости в современной России: философский анализ" – Москва 2015; Сейдахметов Б.Ж. еуметтік әділеттілік мәселелері: Қазақстан қоғамының философиялық талдауы" – Алма-ата, 2012; Рахимов М.Х. "Адолат ва инсон ҳуқуқлари: фалсафий таҳлил" – Душанбе, 2014; Гусейнов Ю. Г. Социальная справедливость и пути ее реализации: Автореф. дис. ... док. филос. наук. –Баку, 1991. – С.22; Куликова О.О. Проблема социальной справедливости в споре Дж. Ролза и Р. Нозика: Дис ... канд. филос. наук. –М., 2004. –С.134; Кашников Б. Н. Концепция общей справедливости Аристотеля: Опыт реконструкции // Этическая мысль. Вып. 2. / Отв. ред. А. А. Гусейнов. М., 2001. –С. 264;

⁵ Эркаев А. Маънавиятшунослик. 2-том. - Т.: Маънавият, 2018. - Б. 130-189-190-350.; А.Чориев. Инсон фалсафаси. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2007. – Б. 324.; ⁵ М.Қирғизбоев. Фуқаролик жамияти: назария ва хорижий тажриба. – Т.: "Янги аср авлоди", 2006. Б. 74.; Ғойибназаров Ш. Оммавий маданият. - Т.: Ўзбекистон, 2012. - Б. 49.; Давлатов О. Адл ила олам юзин обод қил.. "Ватан" журнали 2024 йил 1-сон. Б. 80-81.; 3.Ҳамидов. Юсуф Хос Ҳожибнинг фалсафий, ижтимоий-сиёсий ва ахлоқий қарашлари. АДУ, №2 2017 йил. Б. 38.; Алимов С. Қадимги шарқ ва ғарб диалектикасида адолат – ахлоқий – ҳуқуқий категория сифатида. "НамДУ ахборотномаси" 2019 йл 6-сон.; Отамуротов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий ҳавфсизлик. –Тошкент: O'zbekiston, 2013. –456 б.; Холбеков А.Ж. Ўзбекистонда жамиятнинг демократлашуви жараёнида ижтимоий адолатни амалга ошириш муаммолари (сиёсий-социологик таҳлил). –

Ularni umumlashtirish asosida adolatning ma'naviyat kategoriyasi sifatida ayrim jihatlarini ancha o'rganish mumkin. Lekin ularning birortasida adolat ma'naviyat kategoriyasi sifatida alohida tahlil etilgani yo'q. Shu sababdan ushbu mavzu ustida tadqiqot olib borishni, adolat ma'naviyatning universal kategoriyasi ekanini ilmiy asoslashga diqqat qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Qarshi davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "Barkamol inson shaxsining shakllanishida obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar dialektikasi" (2020-2025 yy) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi adolatning ma'naviy universal kategoriya sifatida jamiyat barqaror taraqqiyotidagi ahamiyatini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

adolat kategoriyasining mazmun-mohiyati, namoyon bo'lish shakllari, inson, jamiyat va davlat rivojidagi o'rnini tahlil qilish;

ijtimoiy-axloqiy va siyosiy-huquqiy tafakkur tarixida adolat tushunchasining universal ma'naviy kategoriya sifatida shakllanish bosqichlarini tadqiq etish;

ijtimoiy davlat barpo etish sharoitida adolatni jamiyat barqarorligi, milliy jipslik va taraqqiyot omili sifatidagi rolini asoslab berish;

ijtimoiy sheriklik va hamkorlikni ta'minlash, muammolarni hal qilish va tenglikni qaror toptirishda adolatparvarlikning ahamiyatini ochib berish;

yosh avlodda g'oyaviy mutaassiblik qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishda adolatning kategoriyasining o'rnini asoslash;

ma'naviy tarbiya takomillashuvida fuqarolarni ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlantirish, huquqlarini ta'minlash va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda adolatparvarlikdan foydalanishga oid taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obekti sifatida zamonaviy jamiyatda kechayotan ma'naviy-mafkuraviy jarayonlar, ularda adolat kategoriyasining namoyon bo'lishi va ma'naviy qadriyat sifatidagi roli tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini adolat kategoriyasining baholash, ongli tanlov va hayotga munosabatga ta'sir ko'rsatish xususiyatlarini, ma'naviyat tizimida adolatning falsafiy-axloqiy mohiyati, uning namoyon bo'lish shakllari, funksional vazifalari va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, korrelyatsion-regression tahlil, dialektik, sinergetik yondashuv kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Тошкент, 2001. – 276 б.; Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. Икки томлик. – Тошкент: Ўзб.файл. миллий жам. нашр, 2019; Тилобов Т.Ч. Ижтимоий адолат тамойиллари ёшлар тарбиясининг муҳим омили. – Тошкент, 2017. – 149 б.; Алимова З.И. Ижтимоий адолат тамойиллари ва унинг ислом динида намоён бўлиш хусусиятлари: фалсафий таҳлил. – Тошкент, 2006. – 152 б; Мусаев Ф. Демократик давлат қуришнинг фалсафий-ҳуқуқий масалалари. – Т.: Ўзбекистон, 2007. – 270 б; Шарипов А. Янги Ўзбекистонда маънавий-мафкуравий ислохотлар: ижтимоий-фалсафий таҳлил. Монография. – Бухоро, 2021. Пардаева М.Д. Алишер Навоий асарларида Комил инсон ғояси. - Бухоро.: Дурдона, 2016. Турдиев Б.С. О'zbekistonning ma'naviy yangilanish strategiyasi. //Ilmiy risola. Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2020. - 48 b.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

adolatning ma'naviyatning me'yoriy kategoriyasi sifatidagi mezoniy (insonlararo munosabatlarni baholash, insoniy ideallarga mos kelish), siyosiy-huquqiy (manfaatlarni himoya qilish, muvozanatni saqlash, faollikni oshirish), iqtisodiy (tenglik, ijtimoiy himoyalanganlik) xususiyatlari hamda adolatsizlikning ma'naviy holatni ifoda etuvchi proteksionizm va byurokratiya, mahalliychilik va boqimandalik, korrupsiya va iste'molchilik kabi ko'rinishlari asoslab berilgan;

adolat jamiyat barqarorligini (barqarorlashtiruvchi va inson manfaatlarini muvofiqlashtiruvchi qadriyat), milliy jipslikni (turli darajadagi manfaatlarini uyg'unlashtirish va muvozanatni ta'minlash), milliy taraqqiyotni (hududlararo iqtisodiy disproporsiyalarni kamaytirish, kommunal va infratuzilmaviy sohalarda tenglik) ta'minlash omili hamda ijtimoiy tizimning adolatga asoslangan muvozanatli rivojlanishini ta'minlovchi markaziy kuch sifatidagi ahamiyati ochib berilgan;

ijtimoiy sheriklik to'g'risidagi (manfaatlar muvozanati, qayta taqsimlash hamda kapitalizmni saqlash, kuchsiz qatlamni "yutish") muqobil va qarama-qarshi konseptlar jamiyatda adolat prinsipini ta'minlovchi (huquqlarini tan olish, tenglik, manfaatlar muvofiqligi) institutsional mexanizm sifatida komparativistik ochib berilgan hamda O'zbekistonda ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish adolat, barqarorlik, tenglikni hayotga tatbiq etish va ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash sharti sifatida dalillangan;

adolatparvarlikning inson qadrini yuksaltirishga oid kriteriylarining ma'naviy tarbiyaga komillik, harakat va mehnatni e'tirof etish mezoni, botil g'oyalarga qarshi ma'rifiy immunitet va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish vositasi sifatidagi ta'siri aniqlangan hamda yosh avlodda tashabbuskorlikni tarbiyalash, boqimandachilik kayfiyatini oldini olish tamoyili sifatida ahamiyati asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mafkuraviy xurujlar va ta'sir o'tkazishning zamonaviy usuli – "ommaviy madaniyat"ning adolat mezonini buzuvchi shaxs manfaatini ustun qo'yish, begonalashtirish, befarqlik, iste'molchilik kayfiyati, xudbinlikka berilish, yoshlarda umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan bepisandlik kayfiyatini shakllantirish kabi xususiyatlari ochib berilgan;

ijtimoiy davlat odil jamiyatning yashash usuli sifatida har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish, inson huquqlari va erkinliklari to'la ta'minlash, urbanizatsiyani rivojlantirish, salomatlikni ta'minlash, so'z erkinligi va axborot olish imkoniyatining cheksizligi va korrupsiyaga barham berish prinsiplariga amal qilish zarurati aniqlashtirilgan;

adolatparvar jamiyatni rivojlantirishda ta'lim tizimida adolatparvarlikni targ'ib qilish, adolat, tenglik, inson qadri tushunchalarini asos qilib kiritish, fanlararo integratsiya orqali adolat muaamosini ko'p qirrali yoritish, oila va jamoa muhitida adolatparvarlikni mustahkamlash, "Oilada adolat" loyihasini amalga oshirish, "adolatli inson" obrazini targ'ib etuvchi ijobiy media-qahramonlarni yaratish zarurati asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlar, sotsiologik so'rov natijalariga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarning ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan konseptual g'oyalardan mamlakatimizda ijtimoiy davlatni barpo etish, ma'rifiy jamiyatni shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqishda, adolat tushunchasining falsafiy mazmunini aniqlashtirish, ijtimoiy yoki huquqiy me'yor sifatida, ma'naviyatning chuqur ontologik va aksiologik kategoriyasi sifatida falsafiy tahlil qilish, qadriyatlar tizimida markaziy o'rin sifatida ko'rib chiqish, adolatparvarlik g'oyasining nazariy konsepsiyasini ishlab chiqishda metodologik asos sifatida hamda targ'ibot-tashviqot ishlari, ta'lim-tarbiya jarayonlarini takomillashtirishda foydanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati olingan natijalardan tarbiyaviy va ma'naviy-ma'rifiy tizimlarda, targ'ibot markazlarida tarbiyaviy dasturlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar uchun konseptual asos, siyosiy islohotlarda, xususan, inson huquqlarini himoya qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat xizmatlarining adolatli va shaffof ishlashini ta'minlashda, fuqarolarning huquqiy ongini oshirish, ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish va ijtimoiy adolatga bo'lgan ishonchni mustahkamlashda, yetuk kadrlar, rahbarlar va davlat xizmatidagi mutaxassislar tayyorlashda etika va axloqiy mas'uliyatning mezonini sifatida joriy etilishi, "Falsafa", "Davlat va huquq nazariyasi va tarixi", "Ijtimoiy falsafa", "Ma'naviyatshunoslik" kabi fanlarni o'qitishda, talabalar bilan uyushtiriladigan davra suhbatlarida, "Besh muhim tashabbus" tadbirlarini, yoshlar faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan maqsadli dasturlar ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Adolatning ma'naviy universal kategoriya sifatida jamiyat barqaror taraqqiyotidagi ahamiyatini hamda inson qadrini ulug'lash va milliy ma'naviyatni yuksaltirishdagi rolini tadqiq etish bo'yicha olingan natijalar asosida:

adolatning ma'naviyatning me'yoriy kategoriyasi sifatidagi mezoniy (insonlararo munosabatlarni baholash, insoniy ideallarga mos kelish), siyosiy-huquqiy (manfaatlarni himoya qilish, muvozanatni saqlash, faollikni oshirish), iqtisodiy (tenglik, ijtimoiy himoyalanganlik) xususiyatlari hamda adolatsizlikning ma'naviy holatni ifoda etuvchi proteksionizm va byurokratiya, mahalliychilik va boqimandalik, korrupsiya va iste'molchilik kabi ko'rinishlariga oid ilmiy taklif va tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022-2023-yillarda o'tkazilgan targ'ibot faoliyatida, jumladan, 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining III yo'nalishida belgilangan g'oya va mafkura masalasi hamda ilm-fan va ma'rifat targ'iboti 13-bandi "Yangi ma'naviy makonni shakllantirishning dolzarb

masalalari, bu borada ma'rifatparvar, ziyolilar, davlat va jamoat faollarini birlashtirish hamda "Yangi O'zbekiston orzusi"ni ro'yobga chiqarish bo'yicha targ'ibot tashviqot ishlarini tashkil etish" mavzusida targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 24-iyuldagi 331-son ma'lumotnomasi). Natijada, adolat kategoriyasining mazmun-mohiyati, uning shakllari, inson rivojlanishidagi o'rni haqidagi fikrlarni ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilishga xizmat qilgan;

adolat jamiyat barqarorligini (barqarorlashtiruvchi va inson manfaatlarini muvofiqlashtiruvchi qadriyat), milliy jipslikni (turli darajadagi manfaatlarni uyg'unlashtirish va muvozanatni ta'minlash), milliy taraqqiyotni (hududlararo iqtisodiy disproporsiyalarni kamaytirish, kommunal va infratuzilmaviy sohalarda tenglik) ta'minlash omili hamda ijtimoiy tizimning adolatga asoslangan muvozanatli rivojlanishini ta'minlovchi markaziy kuch sifatidagi ahamiyatiga doir fikrlar va tavsiyalardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasining "Nuqtayi nazar" hamda 2024 yil 19-iyun kunlari efirga berilgan "Noyob meros" radioeshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 20-iyundagi 17-05/101-son ma'lumotnomasi). Natijada, radiotinglovchilarning adolatning mazmun-mohiyatini, uni tashkil etuvchi mezonlar haqidagi bilimlarini oshirishga, ularda adolat tuyg'usini dastlab oilada shakllantirish uchun bildirilgan tavsiyalar radiotinglovchilarning ma'naviy saviyasini oshirishga xizmat qilgan;

ijtimoiy sheriklik to'g'risidagi (manfaatlar muvozanati, qayta taqsimlash hamda kapitalizmni saqlash, kuchsiz qatlamni "yutish") muqobil va qarama-qarshi konseptlar jamiyatda adolat prinsipini ta'minlovchi (huquqlarini tan olish, tenglik, manfaatlar muvofiqligi) institutsional mexanizm sifatida komparativistik ochib berilgan hamda O'zbekistonda ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish adolat, barqarorlik, tenglikni hayotga tatbiq etish va ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash sharti sifatidagi nazariy umumlashmalar va tavsiyalaridan Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi faoliyatida, jumldan, "Ayollar qanoti"ning "Sog'lom oila – mustahkam oila", "Farovon oila" loyihalarida hamda "Yoshlar qanoti"ning ijtimoiy yo'nalishida belgilab berilgan vazifalarni ro'yobga chiqarishda foydalanilgan (Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi Siyosiy Kengashi Ijroiya qo'mitasining 2024-yil 7-avgustdagi 01-27/387-son ma'lumotnomasi). Natijada, dasturlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda nazariy-metodologik asos sifatida hamda partiya tomonidan tomonidan o'tkazilgan targ'ibot-tashviqot tadbirlarining samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

adolatparvarlikning inson qadrini yuksaltirishga oid kriteriylarining ma'naviy tarbiyaga komillik, harakat va mehnatni e'tirof etish mezoni, botil g'oyalarga qarshi ma'rifiy immunitet va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish vositasi sifatidagi ta'siri aniqlangan hamda yosh avlodda tashabbuskorlikni tarbiyalash, boqimandachilik kayfiyatini oldini olish tamoyili sifatida ahamiyatiga oid amaliy tavsiya va xulosalardan Qarshi davlat universitetida bajarilgan 21-05/1t-8-raqamli

“Ma’naviy yetuk yoshlar – porloq kelajak sari yo’l boshlar” (2021-2022 yy) grant loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2025-yil 28-maydagi 04/2199-son ma’lumotnomasi). Natijada, grant doirasida “O’z biznesingni yarat” va “Men faol tashabbuskor va yetakchi” mavzularida o’tkazilgan seminar treninglarda adolat, ijtimoiy adolat, ijtimoiy sheriklik jamiyatda milliy jipslikni hamda taraqqiyotni ta’minlovchi kuch ekanligi isbotlangan, adolat asosida ijtimoiy sheriklik munosabatini shakllantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o’tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo’yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta (5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) maqola chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 136 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi, muammoning o’rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog’liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotda qo’llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Adolat kategoriyasini ijtimoiy-falsafiy tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari**” deb nomlanib, unda adolat tushunchasining evolyutsion rivojlanish jarayoni tahlil qilingan. Siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ekologik, umuman olganda universal kategoriyaga aylanishi jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari, o’zaro ta’sir, bir-birini boyitish, mazmuni va funksiyalarini kengaytirish, ba’zi me’yorlarini inkor qilish sifat kasb etish nuqtayi nazaridan tahlil qilingan.

Adolat tushunchasi shakllanishi insonning ijtimoiylashuvi va kishilik jamiyati rivojlanishi bilan bog’liq. Inson stixiyali tabiiy instinktiv, iyerarxialashgan munosabatlardan ongli, ijtimoiylashgan munosabatlarga o’tishi jarayonida, ularni tartibga soluvchi talablarni, qoidalar, me’yorlarni yaratgan va hammaga ma’qul bo’lishiga intilgan. Buning uchun belgilanayotgan tartib-qoidalar, me’yorlar urug’ – jamoaga foyda keltirishi, jamoa umumiy manfaatiga mos kelishi, jamoa ichidagi o’ziga xos tenghuquqlilikni buzmasligi kerak edi.

Dissertatsiyada adolat to’g’risidagi tasavvurlar, uning mazmun-mohiyati, namoyon bo’lish shakllari, talablari, mezonlari jamiyat bilan birga rivojlanganligi,

o'zgarishi asoslab berilgan. Ijtimoiy munosabatlar xilma-xillashib, murakkablashgan sayin adolat tushunchasi ham mazmunan va shaklan boyiydi. Universal ma'naviy kategoriya darajasiga ko'tarilgunga qadar, adolat uzoq evolyutsion yo'lni bosib o'tgan.

Adolat tushunchasi shakllanishi, garchi atamaning o'zi har xil ifodalanib bizda islomga qadar yagona lisoniy ifoda shakliga ega bo'lmasa-da, ilk bor ibtidoiy tuzum davrida, mavjud turmush tarzi va sig'inish me'yorlarlarining e'tirozsiz qabul qilinishini anglatgan⁶. Shundan adolat – barcha uchun umumqabul qilingan qoidalar tizimiga amal qilishni bildirib kelmoqda.

Tadqiqotchi fikricha, inson adolatli bo'lishi uchun aqlli, ilimli, irodali, mard, kamtar, halol, haqgo'y, vijdonli va nomusli, tolerant, mas'uliyatli bo'lishi kerak. Shu fazilatlar yetakchilik qilsagina, kishining hayoti va faoliyati adolatga mos bo'ladi. O'z nafsining quliga aylangan, o'zining manfaatini jamiyat manfaatidan ustun qo'ygan kishi adolatli hisoblanmaydi⁷. Insondagi ezgu intilishlar, iroda va kamtarlik, halollik va mardlik esa uni odamlar o'rtasida obro'-e'tibor topib, e'zozlanishiga olib keladi.

Ibtidoiy jamiyatdan agrar jamiyatga o'tilib, davlat va huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yetakchi kuchga aylanishi jarayonida adolat tushunchasi siyosiy va huquqiy mazmun ham kasb etdi, industrial va postindustrial jamiyatda asta – sekin universal me'yorga, ma'naviyat kategoriyasiga aylandi. Inson qadr-qimmat, unga jamiyatning munosabati, insonparvarlik, vatanparvarlik, vijdon, burch, mas'uliyat va erkinlik, baxt va o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqarish kabi axloqiy me'yorlar adolat tushunchasini har bir davrda, har bir jamiyatda konkretlashtirib, mazmunan va shaklan boyitib keldi. Ular inson xatti-harakatini, hayotga munosabatini belgilovchi axloqiy talabga aylandi.

Dissertatsiyada xususiy mulkchilik va ijtimoiy tengsizlikning vujudga kelishi bilan adolatni tenglikdan ajratilishi ta'kidlangan. Endi u odamlarning ijtimoiy ahvoliga, kelib chiqishiga, yuqori tabaqalarga mansubligiga muvofiq imtiyozga ega bo'lish yoki ega bo'lmaslikni ham bildirib boshlaydi. Egalitaristik, ya'ni hammaga birdek taqsimlash, ibtidoiy jamiyat yemirilishi jarayonida ijtimoiy differensial taqsimlash bilan to'ldirildi, keyinroq agrar jamiyatda to'liq almashtirildi. Jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishuvi ijtimoiy adolatning asosida yotgan ibtidoiy egalitarizm (tenglik, tekischilik) tamoyilini tabaqaviy imtiyozlar tan olinishi va yangi tamoyil adolatli hisoblanishini taqozo etdi.

Adolatning qaror topishi siyosat orqali ham amalga oshadi va davlat boshqaruvida namoyon bo'ladi. Xususiy mulk, u bilan birga ijtimoiy tabaqalashuv vujudga kela boshladi. Mahsulot almashuvi, savdo-iqtisodiy munosabatlar xilma-xillashdi va murakkablashdi. Asta-sekin hunarmandchilik, savdo-sotiq, almashuv, madaniyat, boshqaruv markazlari – shaharlar, yirik aholi manzillari shakllandi. Barcha yangidan qaror topgan munosabatlar adolat tushunchasiga, uni ta'minlashga turli xil yangi talablar qo'ydi. Adolat tushunchasi ko'plab yangi qirralar, jihatlar,

⁶ Фалсафа қомусий луғат. /Қ.Назаров таҳрир остида. - Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2004. – Б.14-15.

⁷ Эркаев А.П. Тафаккур эркинлиги. – Тошкент: Маънавият, 2021. – Б.247.

yo‘nalishlar, tamoyillar, mezonlar bilan boyidi. Tobora rivojlanayotgan, kuchayayotgan xususiy mulkni, savdo-sotiqni, diniy va fuqarolik institutlarini himoya qilish zarurati urf-odatlar, an‘analari, oila va urug‘-jamoada qaror topgan xulq-atvor talablaridan tashqari, hammaga majburiy va ma‘lum hollarda kuch ishlata oladigan institutlarga ehtiyoj yuzaga keldi. Natijada huquq va davlat (siyosiy tashkilot) shakllandi.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, adolat tushunchasi barcha davrlar uchun dolzarb bo‘lgan. U odamlar birlashishi, bir birlarini o‘zaro qo‘llab-quvvatlashi, o‘zlarini muhofaza etishi, ma‘lum maqsadlarga birgalikda erishishi uchun zarur bo‘lgan. Adolat axloq qatorida diniy, siyosiy va huquqiy qarashlar, almashuv, savdo-sotiq va boshqa zarur munosabatlar talablarini ham o‘zida aks ettirib, boyigan, murakkablashgan. Ayni paytda adolat har bir mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, harbiy, siyosiy, diniy jihatdan taraqqiy etish darajasiga bevosita bog‘liq bo‘lgan. Shunday qilib, adolat asta-sekin umuminsoniy universal ijtimoiy-ma‘naviy kategoriyaga aylangan.

Sharq mutafakkirlari adolatni siyosiy boshqaruv madaniyatining asosi, deb bilganlar. Ular “odil podshoh” g‘oyasini olg‘a surganlar va har tomonlama tahlil etganlar. O‘z navbatida siyosiy boshqaruv tadbirkorlikni, ehtiyotkorlikni, notiqlikni, qat’iyat va haqiqatparvarlikni talab qilgan. Adolat, shuningdek, kasb odobi, insoniylik, saxovat, himmat g‘ariblar va miskinlarga rahm-shafqat kabi tushunchalar bilan bog‘liq holda tahlil etilgan. Kasb odobi avvalo yasagan buyumning, yetishtirgan mahsulotning sifatini ta‘minlash, fahm-farosat, halollik, buyum narxini yoki xizmat haqini belgilashda nafsni tiya olish, mijozga xushmuomalalik, xayrixohlik kabi xislatlarni o‘z ichiga oladi. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, adolat universal mazmunga ega bo‘lib, axloqiy, diniy, huquqiy, siyosiy va iqtisodiy ong kategoriyasidir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Adolat jamiyat barqarorligi, milliy jipslik va taraqqiyot omili sifatida”** deb nomlanib, uning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy adolat siyosati va ijtimoiy sheriklik, jamiyatni ma‘naviy jipslashtirishda adolatning ahamiyati tahlil qilinadi. Ushbu munosabat bilan g‘arb olimlarining ijtimoiy adolat haqidagi ayrim qarashlariga munosabat ham bildirilgan.

Davlat va jamiyat rivojlanishi jarayonida insonlarning o‘zaro tabaqalanishuvi, sinflarga bo‘linishi, ular o‘rtasidagi munosabatlar ziddiyatli kechishi, ba‘zan o‘zaro kurashga aylanishi, tomonlar manfaatlarini ma‘lum darajada hisobga olib, muammolarni yechish lozimligi tufayli asta-sekin ijtimoiy adolat tushunchasi paydo bo‘ldi. Ijtimoiy adolat sinflar, ijtimoiy guruhlar munosabatlari tartibga solinishi qatorida davlat va fuqaro, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlar mazmuniga ham tegishli tushuncha bo‘lib, adolat kategoriyasining muhim tarkibiy qismi va yo‘nalishidir.

Tadqiqotda ijtimoiy adolat tushunchasi talqinlari qiyosiy tadqiq etilgan. Avstriyalik iqtisodchi va faylasuf Fridrix Xayyek bu tushunchani inkor qiladi. Xayyek fikriga ko‘ra, ushbu tamoyil bozor iqtisodiyoti mohiyatiga, mulk daxlsizligini himoya qilish qoidasiga zid keladi. Xayyek “Ijtimoiy adolat sarobi” kitobida “Faqat inson irodasi bilan yaratilgan vaziyatlarga adolatli yoki adolatsiz deb atalishi mumkin”. Uning fikricha, adolat alohida shaxslar faoliyati xossasidir.

Erkin jamiyatda biz egalik qiladigan mulkning murakkab strukturasi ko'plab insonlar faoliyatining mahsulidir. U tabiiy – tarixiy stixiyali ravishda shakllangan. Bir inson irodasining natijasi emas. “Ijtimoiy adolat” – bu (shunchaki) xato emas, “axloqli tosh” degan iboraga o'xshash bema'nilikdir”⁸, - deydi olim. O'z fikrini rivojlantirib, u: “Ijtimoiy adolatga hozirgi davrda o'sib borayotgan ishonch erkin sivilizatsiyaning boshqa qadriyatlariga nisbatan eng katta xavfdir”⁹, -degan xulosaga keladi.

Xayyekdan farqli, Jon Roulz, “Adolat nazariyasi” kitobi muallifi, “Adolatli jamiyat 3 ta shartga javob berishi lozim deb hisoblaydi:

birinchidan, u har bir fuqaroga asosiy erkinliklar keng ko'lamini maksimal darajada taqdim etishi kerak (shu jumladan siyosiy erkinliklarni ham);

ikkinchidan, ma'lum bir ustuvorlik bilan bog'liq ijtimoiy pozitsiyalar (masalan, yuqori haq to'lanadigan ishlar), hamma uchun ochiq bo'lishi va imkoniyatlar tengligiga mos kelishi lozim;

uchinchidan, noteng daromad va farovonlik darajasi faqat shunday holatlarda o'zini oqlaydiki, bunda ijtimoiy piramidaning quyi asosida joylashgan jamiyatning muhtoj a'zolariga beriladigan qo'shimcha mablag' (ya'ni noteng taqsimot) jamiyatning ishlab chiqarish unumdorligini oshirishga qaratilgan bo'lsa”¹⁰.

Ijtimoiy adolat mehnat va kapital, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida turli shakllardagi ijtimoiy sheriklik orqali yuzaga chiqadi. Ijtimoiy sheriklik ikki xil mexanizmga amalga oshadi. *Birinchisi* - bipartizm: bunda ish beruvchi va ishchi xodimlar o'rtasida jamoaviy shartnoma tuziladi. *Ikkinchisi* – tripartizm: bunda endi uch yoki undan ko'p tomonlama kelishuv bo'ladi¹¹. Unda keng ma'noda hududiy darajasidagi muammolar: ekologik, ishsizlik, bandlik, umuman olganda ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va iqtisodiy muammolarni bartaraf etish bo'yicha konsensusga (kelishuvga) erishiladi.

Har qanday hamkorlik ham ijtimoiy sheriklik deyilmasligini A.Erkayev o'zining “Yangi O'zbekiston: milliy g'oya haqida o'ylar” kitobida e'tirof etadi: “Ijtimoiy sheriklik har qanday hamkorlikni anglatmaydi, balki mulkka va hokimiyatga nisbatan huquqiy maqomi turlicha subyektlar o'rtasidagi hamkorlikni bildiradi”¹².

Dissertant ijtimoiy sheriklik bo'lishi uchun hamkorlik qilayotgan subyektlarning mulkka nisbatan huquqiy maqomi turlicha bo'lishi lozimligini e'tirof etadi. Dissertatsiyada ijtimoiy sheriklikning ko'rinishlari mulkdor va ishchi-xodimlar yoki davlat tashkilotlari va NNTlar, davlat va fuqarolik jamiyatining turli institutlari o'rtasida bo'lishi ta'kidlanadi.

Jamiyat hayotida adolatning yanada chuqurroq o'rin olishi va rivojlanishi milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o'tish bilan bog'liq. Milliy yuksalish mamlakatimiz va xalqimiz taraqqiyotida yangi sifat bosqichini boshlab berdi. Buni

⁸ Lister, A. (2013). The “Mirage” of Social Justice: Hayek Against (and For) Rawls. Critical Review, 25(3–4), 409–444. <https://doi.org/10.1080/08913811.2013.853859>

⁹ Pérez-Garzón, Carlos Andrés. Unveiling the Meaning of Social Justice in Colombia (англ.) // Mexican Law Review (англ.) рус. : journal. — 2018. — 14 January (vol. 10, no. 2). — P. 27—66

¹⁰ Дэвид Миллер. Политические учения. Краткое введение. — М.: Астраль, 2007. — С. 120-121.

¹¹ Эркаев А. Янги Ўзбекистон: миллий ғоя ҳақида ўйлар. — Тошкент: Маънавият, 2023. — Б. 87.

¹² Эркаев А. Янги Ўзбекистон: миллий ғоя ҳақида ўйлар. — Тошкент: Маънавият, 2023. — Б. 88.

yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilingani ham tasdiqlaydi. Prezident Sh.Mirziyoyev to'g'ri ta'kidlaganidek: ““Milliy yuksalish” deganda, biz mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarishni, jonajon diyorimizda yagona oila bo'lib yashayotgan, o'z tarkibida 130 dan ortiq millat va elatlarni birlashtirgan bag'rikeng xalqimizning ezgu orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarib, ma'naviy dunyosini yanada boyitishni tasavvur qilamiz”¹³.

Xalqni belgilangan maqsadlar, umummilliy ulkan loyihalar tevaragida jipslashtirish adolat tamoyillariga asoslansagina, u samara beruvchi safarbarlikka aylanadi. Xalq jips bo'lsa, umumiy maqsad tevaragida birlashsa, amaliy harakatga kelsa, yuksak marralarga erisha oladi. Haqiqiy milliy jipslik – diniy mansublikdan, urug'-aymoqchilikdan va mahalliychilikdan ustun turishi kerak. Agar milliy jipslik yetishmasa, oxir – oqibat o'zaro kelishmovchiliklar natijasida o'sha davlat parokandalikka yuz tutadi. Turli diniy oqimlar va siyosiy mafkuralar ta'sirida qanchadan qancha insonlar o'z qarashlarida, tanlovlarida adashib, bir birlariga qarshi kurasha boshlaydi. Ayniqsa jahon hamjamiyatini har xil diniy ekstremistik, terroristik harakatlar tashvishlantirmoqda. Ayrim diniy oqimlar, yo'nalishlar siyosiylashmoqda. Ular o'z g'oyalarini shu mamlakat, qolaversa, butun mintaqa hududida ustun bo'lishi uchun harakat qilmoqdalar.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, XX asrda ijtimoiy konfrontatsiya o'rniga ijtimoiy sheriklik g'oyasi paydo bo'ldi va asta-sekin jahonga tarqaldi. Ijtimoiy sheriklik birinchi navbatda jahon hamjamiyatida mehnat va kapital o'rtasidagi o'zaro kelishuv, korxona uchun mas'uliyatni o'zaro bo'lib olish, taqsimlash, shuningdek ortiqcha foydani adolatli taqsimlash, mehnat muhofazasi sifatida qabul qilindi. Asta-sekin ijtimoiy sheriklik mazmuni kengayib, shakllari ko'paydi: davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi rang-barang sheriklik turlari va “davlat - xususiy sheriklik” shakli paydo bo'ldi. Ijtimoiy sheriklik faqat ijtimoiy adolat ta'minlansagina, sherik tomonlar o'z majburiyatlarini og'ishmay to'liq ado etsalargina qaror topadi. Adolat kategoriyasini to'g'ri tushunish, adolatga nisbatan jamiyatdagi ehtiyoj siyosiy va huquqiy ong rivojlanishi, faollashishi va teranlashishiga, qamrov darajasi kengayishi va konkretlashishiga xizmat qiladi. Noto'g'ri talqin qilish siyosiy va huquqiy ongni adashishlarga, jamiyat hayotida adolatsizliklar yuz berishiga, jamiyatda barqarorlikka putur yetishiga, noqonuniy faoliyat turlari, yashirin iqtisodiyot ko'payishiga sabab bo'ladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Adolat kategoriyasining ma'naviy tarbiya takomillashuviga ta'siri”** deb nomlanib, unda yosh avlodda mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashda, g'oyaviy mutaassiblik va botil qarashlarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishda adolat kategoriyasidan foydalanish zarurligi asoslanadi. Yosh avlodni ma'naviy jihatdan komil inson qilib tarbiyalash, uni ilm-fanga qiziqtirish, o'zi mashg'ul sohada tashabbuskorligini oshirish, boqimondalik kayfiyati shakllanishining oldini olish haqida fikr yuritiladi.

Axborot oqimi, “go'zal turmush” va sifatli mahsulotlar reklamasi yoshlarda iste'molchilik psixologiyasini, mumtoz qadriyatlarga nisbatan bepisandlikni

¹³ Мирзиёев Ш. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик – миллий ғоямизнинг пойдеворидир. – Тошкент: Тасвир, 2021. - Б.5.

shakllantirmoqda. Bu esa yosh avlod tarbiyasi har qachongidan ham murakkablashayotganining dalolatidir. Yoshlar tarbiyasi barcha mamlakatlarning asosiy muammosiga aylanib bormoqda. Yoshlarga xos qiziqqonlik, jamiyatni, turmushni “yaxshilashga” intilish, o‘z qarashlariga mos kelmaydigan qoidalar, tartib va me‘yorlarni adolatsiz hisoblab, o‘zgartirishga moyillik xos. Bu ularning yoshi, psixologiyasi, hayotiy tajribasi kamligi bilan bog‘liq. Adolat masalasiga yoshlar ko‘pincha biryoqlama yondashadilar.

Dissertatsiyada turli-tuman axborotlarning salbiy ta‘siridan yoshlarni asrashning birdan bir yo‘li to‘g‘ri tarbiya ekanligi asoslab berilgan. Abdulla Avloniy bejiz tarbiya haqida: “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot masalasidir”¹⁴ demagan. Tarbiya orqali bolada hayotga bo‘lgan to‘g‘ri munosabat va qarashlar shakllantiriladi. Tarbiya ajdodlar va avlodlar o‘rtasida vorisiylikni ta‘minlaydi. Tarbiya orqali insonda hayotga, jamiyatga, mehnat qilishga ko‘nikmalar shakllantirilib boriladi.

Inson ma‘naviy komillikka erishishi, tashabbuskorligining oshishi, ya‘ni o‘z kasbi, ishi sohasida nimagadir intilishi, izlanishi mehnat tarbiyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Mehnatga o‘rganmagan insonda izlanish, topish, yaratish o‘rniga boqimondalik kayfiyati shakllanadi. Inson mehnat orqali o‘z yaratuvchilik imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi. Adolatni yuzaga chiqarishning vositasi ham mehnatdir. Mehnat qilgan inson o‘zgalarning mehnati qadriga yetadi, ularga to‘g‘ri va adolatli baho beradi. Mehnatga o‘rganmagan inson orsiz, uyatsiz, mansabparast, yaltoq bo‘lib o‘sadi. Mehnat tarbiyasi orqali yoshlarda asl insoniy fazilatlar, yaratuvchilik shakllanadi.

